Folklorshunos olim Mamatquli Jo’rayev olamdan o’tdi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O’zbek tili, adabiyoti va folklori institutining Folklor bo’limi mudiri, O’zbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatgan madaniyat xodimi, filologiya fanlari doktori, professor Mamatquli Jo’rayev 2021-yilning 24-avgust kuni 65 yoshida olamdan o’tdi.

Mamatquli Jo’raev 1956-yil 1-oktyabrda Buxoro viloyatining Qorako’l tumanida tug’ilgan. U o’zbek filologiyasining atoqli namoyandalaridan biri, xalq og’zaki badiiy ijodiyotini keng ko’lamda tadqiq etishdan iborat fundamental ilmiy maktabga asos solgan fan tashkilotchisi, eposshunoslikning ko’plab nazariy masalalarini jahonshumul darajada hal qilgan yirik folklorshunos olim edi.

M.Jo’rayev o’zbek folklorshunosligining dolzarb masalalariga doir 60 ga yaqin kitob, shu jumladan, 20 ga yaqin monografiya, 8 ta o’quv qo’llanma va xorijiy mamlakatlarda bosilgan 4 ta kitob muallifidir. Uning hozirgacha 500 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari nashr etilgan bo’lib, Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Turkmaniston, Ozarbayjon, Qozog’iston kabi mamlakatlarning ilmiy nashrlarida chop ettirilgan 80 ga yaqin ilmiy maqola va axborotlari xorijlik olimlar tomonidan e’tirof etilgan. So’nggi 3 yil ichida olimning 20 ta kitobi chop etilgan bo’lib, shundan 2 tasi Germaniya va Rossiya Federatsiyasida nashr qilingan.

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Prezidiumi nomidan marhumning oila a’zolari va yaqinlariga chuqur hamdardlik bildiramiz!